

“YASHIL” IQTISODIYOTDA INVESTITSIIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Erkin BOTIROV

Iqtisodiyot fanlari doktori

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil investisiya samaradorligini oshirish masalalari ochib berilgan bo‘lib, “yashil” iqtisodiyotni soha va tarmoqlarga ta’siri va muhimligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, “yashil” iqtisodiyotning mamlakatimiz ta’lim tizimiga kirib borishi hamda rivojlanish tendensiyasi tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, resurslar, yashil investisiya, yashil makon, tadbirkor, tadbirkorlik.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В “ЗЕЛеной” ЭКОНОМИКЕ

Эркин БОТИРОВ

Доктор экономических наук Ташкентского государственного

Экономического университета

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье раскрываются вопросы повышения эффективности зеленых инвестиций. При этом показано влияние и значение “зеленой экономики” на отрасли и сферы. Следует отметить, что “зеленая экономика” проникает в систему образования нашей страны и увеличивает тенденцию развития.

Ключевые слова: зеленая экономика, окружающая среда, ресурсы, зеленые инвестиции, зеленое пространство, предприниматель, предпринимательство.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasidan — taraqqiyot strategiyasi sari” mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to‘la hamohang ekanini ta’kidlab o‘tdi [1]. “Harakatlar strategiyasi”da mo‘ljallangan tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning

raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish maqsad va vazifalari belgilangan [2].

Mamlakatimiz Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida 2020-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish, ishlab chiqarish jarayonini ekologik nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ekologik audit o'tkazish tartibini qayta ko'rib chiqib, xususiy auditorlik faoliyatini jonlantirish muhim vazifalar sifatida qayd etildi [3].

Bugungi kundagi ekologik muammolar endi cheklangan tovar sifatida iqtisodga kiritilgan; yangi tendensiya shakllandi va faol rivojlanmoqda. "Yashil" iqtisodiyot – iqtisodiyot fanining yo'nalishi bo'lib, unda iqtisodiyot o'zi mavjud bo'lgan tabiiy muhitning unga bog'liq tarkibiy qismidir; tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali jamiyat farovonligini ta'minlash, shuningdek, yakuniy foydalanish mahsulotlarini ishlab chiqarish sikliga qaytarishga qaratilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhitni muhofaza qilish tashkiloti (BMTA) ekspertlari "yashil" iqtisodiyotni "odamlar farovonligini yaxshilaydigan va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan, shu bilan birga atrof-muhit va uning kamayishi xavfini sezilarli darajada kamaytiradigan" iqtisodiy faoliyat sifatida ko'rishadi.

Bizga ma'lumki, yashil investisiyalar – bu atrof-muhitni asrashga yo'naltirilgan, yangi asrovchi texnologiyalarni joriy etishni, yashil moliyaviy mahsulotlarni, muqobil energetikaning yangi bozorlarini va yashil energiya turlarini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi loyihalar va modellarni moliyalash manbalaridir. O'zbek olimlaridan M.A.Ibrohimov, A.A.Isadjanov "yashil" iqtisodiyot – bu ertangi kun iqtisodiyoti va aynan u XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi bo'lib, yashil iqtisodiyot nazariyasi quyidagi uchta aksiomaga asoslanadi:

- cheklangan makonda ta'sir sohasini uzluksiz kengaytirib bo'lmaydi;
- resurslar cheklangan sharoitda uzluksiz oshib borayotgan ehtiyojni qondirishni talab qilish mumkin emas.

“Yer yuzida hamma narsa bir-biri bilan bog‘liq”, degan fikrni ta’kidlaydi. B.B.Alimov “yashil” iqtisodiyotni soha va tarmoqlarga ta’siri va muhimligini ko‘rsatib bergan. Shuni alohida takidlash lozimki, “yashil” iqtisodiyotning mamlakatimiz ta’lim tizimiga kirib borishi hamda rivojlanish tendensiyasining oshib borishi kuzatilmoqda.

Shuningdek, M.A.Ibrohimovning “Yashil investitsiya samaradorligini oshirish masalalari” mavzusidagi maqolasida yashil investisiya samaradorligini oshirish masalalari ochib berilgan. Shu bilan birga, “yashil” iqtisodiyotni soha va tarmoqlarga ta’siri va muhimligi ko‘rsatib berilgan. Ular ham “yashil” iqtisodiyotning mamlakatimiz ta’lim tizimiga kirib borishi hamda rivojlanish tendensiyasining oshib borishi to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tganlar.

Bundan tashqari investisiya faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, ularga baho berish asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Investisiya samaradorligi borasidagi tadqiqotlar umumiqtisodiy muammo sifatida mamlakatimizning qator nazariyotchi va amaliyotchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, A.Abdug‘aniyev fikricha, “Iqtisod fanlarida “samara dorlik” va “iqtisodiy samaradorlik” tushunchalari mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxona, yo‘nalishlar hamda ayrim mahsulotlar bo‘yicha aniqlanishi mumkin [3]. Yuqoridagilardan kelib chiqib ularni mamlakatimiz amaliyotiga tadbqiq qilib, investisiya faoliyatining moliyalashtirish manbalari va usullarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-

sonli qarorida 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘shishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsad qilib olingan.

Ushbu maqsadga erishishga mo‘ljallangan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘shishni ta’minlash dasturining ilovasiga muvofiq [6]:


- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVTga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;
- hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish.

Statistik tahlillarga etibor beradigan bo'lsak 2024-yilning yanvar–iyul oylarida respublika korxonalari tomonidan 435,2 trln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2023- yilning yanvar–iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,1 % ni tashkil etdi (1-2 rasmlar).

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.



1-rasm. Sanoat ishlab chiqarishi FHI (yanvar–iyul, % da).




2-rasm. Sanoat ishlab chiqarishi hajmi (yanvar–iyul) trln. soʻmda).

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy viloyatida (69 817,2 ming soʻm), Toshkent shahrida (27 097,5 ming soʻm) hamda Toshkent viloyatida (23 055,0 ming soʻm) oʻrtacha respublika darajasi koʻrsatkichidan (11 771,3 ming soʻm) sezilarli darajada yuqoriligini koʻrsatmoqda (3-4 rasmlar).



3-rasm. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yanvar–iyul, mln. soʻmda).



4-rasm. Respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mln. soʻmda).

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 361,6 trln. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,1 % ni tashkil etdi (5–6-rasmlar).



5-rasm. — Sanoat ishlab chiqarishi hajmi (yanvar–iyul, trln. so'mda),
— Sanoat ishlab chiqarishi FHI (yanvar–iyul, % da).



6-rasm. Respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mln. so'mda).

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari hududlar kesmida yahlil qiladigan bo'lsak Toshkent viloyati (16,2 %), Andijon viloyati (9,5 %), Farg'ona viloyati (5,1 %) hamda Samarqand viloyati (5,1 %) hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI Andijon viloyatida (109,7 %), Namangan viloyati (108,6 %), Navoiy viloyati (108,4 %), Farg'ona viloyati (108,3 %) hamda Toshkent shahrida (108,2 %) kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin.

2023-yilda O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish maqsadida amalga oshirilishi rejalashtirilgan dastur, loyiha va chora-tadbirlar yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda BMTning taraqqiyot dasturi (UNDP/United Nations Development Programme) o'rtasida O'zbekistonda barqaror rivojlanishni moliyalashtirish, barqaror rivojlanish maqsadlari, moliya sohasida "yashil" iqtisodiyot, "yashil" obligatsiya kabi loyihalar yuzasida hamkorlikni amalga oshirish yuzasidan kelishildi. Mazkur kelishuv doirasida 2023-yil davomida O'zbekiston hukumati BMTTD bilan barqaror rivojlanishni iqtisodiyot sohalarga tatbiq qilish, Barqaror rivojlanish

maqsadlarini respublikada keng joriy qilish, O‘zbekistonda “yashil” obligatsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish, moliya sohasida “yashil” iqtisodiyotni o‘rnini oshirish hamda “yashil” loyihalarni moliyalashtirishga ko‘proq e’tibor qaratish bo‘yicha hamkorlik qiladi;

O‘zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etilishini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida mamlakatda “yashil” energiya sertifikatlari tizimini joriy etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Mahsulotlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan va ekologik jihatdan toza texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi hamda bu bilan bog‘liq barcha jarayonlarni kuzatib borish imkonini beruvchi “yashil sertifikatlar” tizimi joriy etilmoqda.

Mazkur tizimga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiyani ishlab chiqaruvchilar “yashil sertifikat”ni yakuniy foydalanuvchiga (mahsulot ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar) sotadi va bu bilan energiyaning “tozaligi”ga kafolat beradi.

Bu esa yakuniy foydalanuvchilarga o‘z mahsulotlarini sotish va eksport qilish hajmini oshirish, xalqaro va xorijiy moliya tashkilotlaridan “yashil” investitsiyalar va “yashil” kreditlarni jalb qilish imkonini beradi.

Shuningdek, yashil investisiya samaradorligini oshirishda jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan birgalikda Iqtisodiyotning dekarbonizatsiyalash va “yashil” rivojlanish modeliga o‘tish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani (LTS – LongTerm Strategy for Decarbonization) ishlab chiqish loyihasi yo‘lga qo‘yildi.

Parij bitimining 4-moddasiga muvofiq, mamlakatlar 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishishga qaratilgan o‘zlarining uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqish belgilangan. Mazkur strategiya doirasida:

iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi xabardorlikni oshirish;

investisiya siyosati to‘g‘risidagi hisobotni ishlab chiqish va investisiyalar bilan bog‘liq huquqiy bazani takomillashtirish;

O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi jihatlaridan kelib chiqib, davlat investisiyalarini boshqarish tizimini joriy etish;

yashil strategiya infratuzilmasini qo'llab-quvvatlaydigan mahalliy moliya institutlari, bank va IT xizmatlari rini qo'llabquvvatlash;

ekologik toza investisiyalarni rivojlantirishda xususiy sektorning ishtiroki uchun sharoit yaratish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, yashil iqtisodiyot mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va dunyoda qashshoqlikni yo'q qilishga katta hissa qo'shadi. Xuddi shu tarzda, bozorni erkinlashtirish g'oyalarini bekor qilish, Shimol va Janub o'rtasida teng sharoitlarda savdo munosabatlarini rivojlantirish yo'llarini hal qilish kerak.

Ta'kidlash joizki, yashil iqtisodiyotni amalga oshirish tabiiy resurslardan mas'uliyatli foydalanishni ta'minlaydigan ekologik barqaror strategiyalarni qabul qilishga imkon beradigan texnologik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Ammo yashil iqtisodiyot tomonidan taklif qilingan maqsadlarga erishish uchun taklif etilayotgan muqobil omillar zarur iqtisodiy resurslarni taqsimlash, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini yanada qat'iylashtirish, subsidiyalar yaratish, atrof-muhit bilan do'stona faoliyat yuritish orqali rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qabul qilinishi va hududni rejalashtirish jarayonlarini optimallashtirish kerak. Xuddi shunday, mamlakatlarga barqaror rivojlanishning asosiy shartlarini e'tibordan chetda qoldirmasdan, bir xil darajada kelishib olish imkonini beradigan yangi iqtisodiy asos yaratish zarur.

Yashil iqtisodiyot barqarorlik parametrlari doirasida iqtisodiy rivojlanishga erishish, ya'ni sog'lom atrof-muhitni saqlash va resurslardan to'g'ri foydalanish uchun qashshoqlikni yo'q qilish hamda zaif ijtimoiy tarmoqlarni aniq maqsadlar yo'lida birlashtirish taqozo etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha choratadbirlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabr PQ-436 sonli qarori.
www.lex.uz

2. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ilmiy yondashuvlarni kengaytirish va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4 aprel PQ108-sonli qarori. www.lex.uz

3. 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabr PQ-4477 sonli qarori. www.lex.uz

4. Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish choratadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 aprel PQ-212 son qarori. www.lex.uz

5. Muhammadjanov K.I. Effective Directions Of Development Of Entrepreneurship // Conference Zone. – 2022. – S.

6. Sharipov K.B. Kichik tadbirkorlik faoliyatida tarmoq bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. T.: "Akademiya nashirlik markazi" nashriyoti, 2020. 61b.

7. Kazakov O.S., & Kamoliddinov I. (2021). Questions Of The Effective Utilization Of Industrial Resources In Enterprise Activity In The Conditions Of Economy Globalization. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(04), 114119. <https://doi.org/10.37547/tajir/Volume03Issue0418>

8. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati. Statistika to'plam. – Toshkent, Statistika agentligi ma'lumotlari, 2020 yil 143 b.

9. www.agro.uzsayti ma'lumotlari.